

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

MAKTABGACHA TA‘LIM FAKULTETI

MEHNAT TA‘LIMI KAFEDRASI

RO‘YXATGA OLINDI

№ _____
2019 y “ ____ ” _____

«TASDIQLAYMAN»

Samarqand davlat universiteti
o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori:
_____ prof. A.Soleev
_____ 2019 y

BILIM SOHASI: 100000 – GUMANITAR SOHA

TA‘LIM SOHASI: 110000 - PEDAGOGIKA

TA‘LIM YO‘NALISHI: 5112100 - MEHNAT TA‘LIMI

“Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar” fanidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA
(Moodle tizimi rejasi asosida)

Tuzuvchi: SamDU Maktabgacha ta‘lim fakulteti, Mehnat ta‘limi kafedrası, o‘qituvchisi, PhD S.M.Elmonov

Kafedra mudiri: t.f.n. A.Urunov

Fakultet uslubiy kengashi raisi dots. T.Ostonov

Sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘lim boshlig‘i: dots. Sh.Umidullayev

O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i: dots. B.Aliqulov

MUNDARIJA:

1

.

2 O‘tilayotgan fanning asosiy nazariy materiallari

.

3

.

4 adabiyotlarning elektron shakli

.

5 Mavzular bo‘yicha taqdimotlar, mustaqil ta’lim uchun materiallar

.

6 Laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlari materiallari

.

7 Qo‘shimcha materiallar

.

**“RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN STANOKLAR”
fanidanning 2019-2020 o’quv yili uchun mo’ljallangan**

SILLABUS

OTMning noini va joylashgan manzili:	Samarqand davlat universiteti	Spitamen shox ko'chasi 166		
Kafedra:	Mehnat ta'limi	“Maktabgacha ta'lim” fakulteti tarkibida		
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	110000 - Pedagogika	5112100 -Mehnat ta'limi		
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	O'qituvchi: PhD S.M.Elmonov	e-mail:	elmonovsirojiddin@gmail.com	
Dars mashg'ulotini o'tkazishning vaqti va joyi:	O'quv-uslubiy boshqarma tomonidan ishlab chiqilgan dars jadval asosida kafedrada	Kursning davomiyli gi:	Ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga muvofiq 1 kurs 1/11 semestr	
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	Seshanba va juma kunlari 13.30 dan 15.00 gacha			
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari
	Ma'ruza	8	Amaliyot	
Fanning boshqa fanlar bilan (postrekvizitlar): bog'liqligi	« Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar » fanini o'qitishda «Materialshunoslik», «Chizma geometriya muhandislik grafikasi», «Umumiy psixologiya», «Mehnat ta'limi praktikumi», «Oliy matematika asoslari», «Fizika», «Texnik mexanika» va boshqa fanlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.			
Talabalar uchun talablar	<ul style="list-style-type: none"> - Professor-o'qituvchiga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - Institut intizom qoidalariga rioya qilish; - Mobil lelefonni dars davomida o'chirish; - Berilgan topshiriqlami o'z vaqtida bajarish; - Guruhdoshlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish; - Plagiat man etiladi; - Darsga o'z vaqtida kelish; - 4 soatdan ortiq dars qoldirilgan taqdirda, dekanat ruxsali bilan darsga kirish. 			
Flektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, lekin oraliq, joriy va yakuniy baholash faqatgina institut hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi.			

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi:
№ 1178
2019 y. « »

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari prorektori
prof. A. Soleev _____
« » 2019 yil



RAQAMLI DASTUR BILAN BOSHQARILADIGAN STANOKLAR
fanining

ISHCHI O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 - pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5142000 - mehnat ta'limi

SAMARQAND – 2019

Fanning ishchi o'quv dasturi o'quv, ishchi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi: S.Elmonov - Mehnat ta'limi kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar: A. Urunov - Mehnat ta'limi kafedrasida t.f.n.

T.Ostonov - Mehnat ta'limi kafedrasida dots. t.f.n.

Fanning ishchi o'quv dasturi "Mehnat ta'limi" kafedrasining 2019 yil 29 avgustdagi № 1- son yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:



t.f.n. A.Urunov

Fanning ishchi o'quv dasturi "Maktabgacha ta'lim" fakulteti uslubiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil 31 avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Fakultet uslubiy kengashi raisi:



dots. T.Q.Ostonov

Fanning ishchi o'quv dasturi "Maktabgacha ta'lim" fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019 yil 31 avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi:



prof. B.Haydarov

Kelishildi:

O'quv uslubiy boshqarma boshlig'i



dots. B.Aliqulov

Kirish

Mazkur o'quv dasturi bo'lg'usi kasb ta'limi o'qituvchilariga RDB dastgohlari yordamida robototexnologik komplekslar (RTK), o'zgaruvchan ishlab chiqarish modullari, o'zgaruvchan avtomatik liniyalar kompanovkalari, past prosessorli asosda boshqariladigan dasturli kompyutorli mexanizmlarining ishlash prinsiplari bilan tanishtiriladi.

RDB dastgohlari va dastgohli komplekslarda detallarga ishlov berish texnologiyasi, imkoniyatlari, xususiyatlari, foydalanish muhiti to'g'risida talaba tasovvurga ega bo'lishi kerak. RDB dastgohlari va undagi funksional bog'langan avtomatlashtirilgan uzal, agregatlarni, yuritmalarni, konstruksiyalari, ishlash prinsipi, boshqarish tizimi mazmuni, dasturlashtirish texnologik operatsiyalari xaqida talaba bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi ko'zda tutilgan.

Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi - texnologik tizim elementlari, konstruksiyalarini texnologik tayyorlash, ishlov berish rejimlari va dasturlashtirish operasion eskizlari va vositalarini, standart avtomatik sikllarni, RDB dastgoh turlari, intellektuallashtirilgan ishchi pozisiyalar, nazorat elementlari, asboblarini o'rgatadi.

Fanning vazifasi - talabalarga texnologik axborotlarni kodlashtirish, dasturlash vositalarini, nazorat tizimlarini bilgan, berilgan ishlov berish texnologik jarayonini optimal sharoitda olib borish va texnologik oqimda sarflanuvchi quvvatlarni muvofiqlashtirish, RDB dastgohlarini texnologik ko'rsatkichlarini hisoblashni amalga oshirish masalalarini o'rgatadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Dastur asosida boshqariladigan tarixiy davr va zamonaviy dastgohlarni konsiruksiyasi va boshqarish tizimlarini, ishlash prinsiplarini, yangi texnologiyalardagi ahamiyatini, jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini yaqqol tasovvur qilishni bilishi kerak.

Talaba jihozlarni ishlatishdagi asosiy qoidalarni, xavfsizlik texnikasini va murakkab ishlab chiqarish vazifalarini hal qilishdagi yo'l-yoriqlarini tasavvur qila olishi zarur, asbob-uskunalardan to'g'ri foydalanish va ularda ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Detailarga ishlov berishda dastgohni to'g'ri tanlav olishi, kerakli darajada hisoblash, dastur tayyorlash, standart dasturdan foydalanish, boshqarish tizimlarining turlari past prosessorli boshqarish, dastur kadrlarini, marshrut va operasion texnologik jarayonlarni tuzish usullarini bilishi va foydalana olish malakasiga ega bo'ladi.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Fanni o'rganish "Oliy matematika", "Fizika", "Elektrotexnika, elektronika va elektroyuritmalar", "Mashinasozlik texnologiyasi asoslari", "Texnik tizimlarni boshqarish", "Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishning texnologik asoslari", "Metall qirqish dastgohlari" kabi fanlari bo'yicha olingarl fundamental bilimlariga asoslangan.

Fanning ta'limdagi o'rni

Mazkur fanni o'qitishda umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi darslari bilan bevosita aloqada bo'lib, materiallarning turlari, ularning xossalari, ta'biy qazilmalar, materiallarning konstruksiyasi, yurtimizda ishlab chiqarilayotgan bir necha turdagi materiallarning turlari xaqida o'quvchilarga bilim berilsa dastur mazmuniga mos keladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning “Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar” fanini o’zlashtirishlari uchun o’qitishning ilg’or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi axborot-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o’qitishda plakatlar, chizmalar, namunalar, yo’riqnoma texnologik xaritalar, ko’rgazmali texnik vositalardan «Kompyuter texnikasi, kinofilm, videofilm, diafilm, slayd va elektron versiyalardan» yangi pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish, bilim ko’nikma va malakalarni hosil qilish ko’zda tutiladi..

Asosiy qism

Fanning ma’ruza mashg’ulotlari

Fanning asosiy mazmuni va vazifalari. Mashinasozlikni avtomatlashtirishda RDB dastgohlari va RTK ahamiyati. RDB dastgohlarida ishlov berishning o’ziga xos xususiyatlari. RDB dastgohlarni afzalliklari. Ishlab chiqarish korxonalarining texnik texnologik taraqqiyot yo’nalishi va vazifasi. Avtomatlashtirilgan tizimni strukturali va informatsiyali sxemasi. “RDB qitirma dastgoh”. Asosiy terminlar va aniqlamalar. RDB dastgohlarini tasnifi. Mexanik ishlov beriladigan detal to’g’risida informatsiyalar, uni o’zgartirish va o’qish. RDB dastgohlarga qo’yiladigan texnologik talablar va ishlov berish turlari bo’yicha klassifikatsiyasi (analogli, siklli, raqam dasturli va adaptivli). RDB dastgohlarining ishchi organini informatsiyalar manbai bo’yicha klassifikatsiyasi. RDB dastgohlaridagi asosiy va yordamchi harakatlar.

Interpolyasiya metodlarisidagi tushuncha. Approksimatsiyalash. Chiziqli va aylanalni interpolyasiya metodlari. Baholash funksiyasi. Interpolyasiya qurilmasining ixtisoslashtirilgan prosessori operativ robt operatorpulti. RDB dastgohlarni kompanovkasi. Konstruksiya afzalligi bo vicha RDB dastgohlarning kompanovkasi (strukturali). RDB dastgohlarining modeling belgilash. Koordinat o’qlarining yo’nalishini tanlash. Koordinatalarni hisoblash usullari va sanoq boshi. Dasturlanuvchi koordinatalar soni.

Dastgohlarni SDB tizimi. Dastur yurituvchilar va ularning klassifikatsiyasi. Mexanik turdagi dastur bilan boshqarish tizimlarining tiplari va ularning texnologik jixozlarda qo’llanilishi. Dastgohlarni siklli dastur bilan boshqarish (SDB) tizimi. SDB tizim strukturalisining variantlari va elementlari. Sikllarni dasturlash: S, M, T—asosiy harakat, yordamchi va asbob funksiyalar. Sanoq tizimlari va kodlari to’g’risida tushuncha. Raqamli informatsiyalarni kodlashtirish. Informatsiyalarni kodlashtirish usullari. RDB dastgohlari uchun boshqarish dasturini tayyorlash prinsiplari. RDB tizimlari. RDB tizimlarining texnik imkoniyatlari bo’yicha klassifikatsiyasi va ularning xususiyatlari.

Boshqarish dasturining strukturali. Boshqarish dasturining strukturali. Boshqaruvchi informatsiyalarni nazorat qilish va tuzatish tizimlari. Boshqaruvchi kadrlarning strukturali. Asosiy harakat, surish, asbob, tayyorlash va yordamchi (S,F,T va boshqa simvollar) funksiyalar. Boshqarish dasturini tayyorlash metodlari. RDB dastgohlarga boshqarish dasturini tayyorlash metodlari. Texnologiya marshrutini tuzish. Texnologik imkoniyatlar, hujjatlarni rasmiylashtirish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash, dasturni tekshirish va sozlash. Raqamli dasturda boshqariladigan tizimlar. Texnologik talablari bo’yicha pozision; to’rtburchakli, konturli kombinalashgan va adaptivli RDB tizimlar. Boshqarish dasturini o’qish va kirgizish qurilmalarining klassifikatsiyasi va vazifasi. Boshqarish dasturini dastur yurituvchiga yozish va nazorat komplekslari. RDB dastgohlar uchun boshqarish dasturini tayyorlash va nazorat qilish vositalar turlari. Boshqaruvchi dasturlarni tayyorlashni avtomatlashtirish. RDB dastgohlarni boshqarish uchun mikroprosessorlarni qo’llash. Universal RDB va mikro EHM ning dasturiy ta’minoti past prosessorlar.

RDB dastgohlarning pozision surish yuritmalari RDB dastgohlarning asosiy harakat va surish, pozisiyalash yuritmalari. Qadamli surish yuritmasi. Qadamli yuritkich. Aylana momentli gidrokuchaytirgich. Yuritmalarning strukturali va kinematik sxemalari. RDB dastgohlarning kuzatuvchi yuritmalari. RDB dastgoh yuritmalarining teskari aloqa datchiklari. Ochiq va berk konturli RDB tizimlar yuritmalarining sxemalari. Asosiy teskari aloqa datchiklari (o'ldash o'zgargichlari). Chizikli va aylanalni induktosinlar, aylanuvchi transformatorlar, fotoimpulsli va lazerli datchiklar. Texnologik jihozlarni kompleks avtomatlashtirish. Moslashuvchan RDB tizimni tuzishning asosiy prinsiplari. Texnologik jihozlarni kompleks avtomatlashtirish uchun RDB tizimlar. DNC va SNS tipidagi RDB qurilmalari. Kompyutorli integrasiyalashtirilgan ishlab chiqarish SIM.

«Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar» fani bo'yicha ma'ruza mashg'ulotlarining mazmuni

t/r	Ma'ruza mavzulari)	Soat
1	Stanoklarni dastur bilan boshqarish haqida asosiy tushunchalar	2
2	RDB dastgohlar uchun boshqaruvchi dasturlar tayyorlash, RDB stanoklar klassifikatsiyasi	2
3	RDB tokarlik stanoklari, RDB tis frezalash stanoklari	2
4	Boshqaruvchi dasturlar uchun axborot tayyorlash. Axborotni kodlash	2
	Jami	8

«Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarining mazmuni

t/r	Ma'ruza mavzulari	Soat
1	RDB frezalash stanoklari	2
2	RDB jilvirlash dastgoxi	2
3	RDB tish firezalash dastgoxlari	2
4	RDB stanoklarida ishlov berish xususiyatlari	2
	Jami	8

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini xisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish.
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismlarini o'zlashtirish.
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash.
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.
- masofaviy (distansion) ta'lim.

Mustaqil ish

	Mavzuni nomi va mazmuni	Soat miqdori
1.	RDB dastgohlari. Atamalar, tariflar tasniflar	4

2.	RDB dastgohlarida dasturlash asoslari	4
3.	Boshqaruvchi dastgohlar uchun axborot tayyorlash	4
4.	16K20 FZS 32 modeli RDB tokarlik vint qirqish dastgohni tuzilishi va ishlashi	4
5.	RDB 2R 118F2 vertikal parmalash dastgohini tuzilishi va ishlashi	4
6.	MA2612PR gorizental-yo'nish dastgohni tuzilishini o'rganish.	
7.	KSU – 53 rusumli RDB radial parmalash dastgohni tuzilishi va ishlashi	4
8.	RDB teshik kengaytiruvchi dastgohi, tuzilishi ishlashi	4
9.	RDB tish frezalash dastgohlari bajariladigan ishlar tuzilishi ishlashi	4
10.	RDB frezalash stanoklari	4
11.	RDB jilvirlash dastgoxi	4
12.	RDB tish firezalash dastgoxlari	4
13.	RDB stanoklarida ishlov berish xususiyatlari	4
14.	RDB stanoklarida sanoq tizimlari va dastur tashigichlar	4
	Jami	56

Dasturning informasion-uslubiy ta'limoti

Didaktik vositalar: cho'yan, po'lat va rangli metallarni ishlab chiqarish; quymakorlik ishlab chiqarish asoslari, metallarga bosim bilan ishlov berish turlari; payvandlash va kavsharlash; metallarga mexanik ishlov berish; kukunli metallurgiya asoslari, metallmas materiallar va ulardan buyumlar olishni aks ettirgan stendlar va plakatlar hamda namunalari, texnologik jarayon kartalari, tarqatma materiallar.

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

“Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar” fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezonlari

“Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar” fani bo'yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi.

joriy nazorat (JN) – talabaning fan mavzulari bo'yicha bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli.

oraliq nazorat (ON) – semestr davomida o'quv dasturining tegishli(fanlarning bir necha mavzularini o'z ichiga olgan) bo'limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikma darajasini aniqlash va baxolash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir yoki ikki marta o'tkaziladi va shakli(yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat (YaN) – semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baxolash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi raxbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitorig bo'limi raxbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YaN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YaN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Raqamli dastur bilan boshqariladigan stanoklar" fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. Ushbu 100 ball baholash turlari bo'yicha qo'yidagicha taqsimlanadi:

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 0-3 ball oralig'ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaning yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish balli hisoblanadi.

Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. A.S.Iskandarov «Materiallarni kesib ishlash, kesuvchi asboblari va stanoklar.-T.: "Fan va texnologiya" 2004 y.
2. X.Xanjanov "Kesish, ishlov berish nazariyasi dastgohlari va kesuvchi asboblari" kursidan kurs ishini bajarish bo'yicha metodik tavsiyanoma.-T.: TDPU 1992 y.
3. Sxirtladze A.G. RDB dastgohlarda operator bajaradigan ishlar «O'qituvchi» 1990.-173 b.
4. Zaxidov S.H. Raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand. 2011 yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. K.B.Usmonov "Metall kesish asoslari".-T.: "O'qituvchi" 2004 y.
2. V.A.Mirboboyev "Konstruktsion materiallar texnologiyasi".-T.: "O'qituvchi" 2004 y.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
4. www.edu.uz

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillika erishgandan keyin “Ta’lim to’g’risidagi qonun,” “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi.

Dasturning asosiy maqsadi ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o’tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to’la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning miliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ma’lumki, mamlakatimizda ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish ilmiy texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mashinasozlik sanoati muhim o’rin egallaydi.

Mashinasozlikning vazifasi xalq xujaligining butun tarmoqlarini yuqori samarali mashina va jihozlar bilan ta’minlashdan iborat.

Shuning uchun respublikamizda jihoz, mashina va asboblarning yangi xillarini ishlab chiqarish yildan yilga kengaymoqda, ularning texnikaviy darajasi va sifati oshmoqda, ularni tayyorlashi osonlashmoqda.

Turlicha materiallardan olingan zagotovkalarni ulardan kesuvchi asbob yordamida qirindi ajratish yuli bilan kerakli shakl ulchamlarga keltirish uchun xizmat qiladigan qurilmaga dastgohlar deyiladi.

Turli konstruksiyali dastgohlar mavjud bo’lishiga karamay, har bir stanokda dvigatel uzatmalar va ish beruvchi mexanizmlari bo’lib, ular o’zaro uzviy bog’langan.

Metallarni kesib ishlash usulining rivojlanishiga chet el va respublikamiz olimlarining qo’shgan hissalarini g’oyat katta. Jumladan, Navoiy mashinasozlik zavodida ishlab chiqarilayotgan yangi model universal dastgohlarni misol qila olamiz.

Ixtirochi Andrey Konstantinovich Nartov XVIII asrning boshlarida birinchi marotaba keskich o’rnatiladigan “tutqichli” va uni mexanik tarzda harakatlantiruvchi supporti tokarlik dastgohini ixtiro etdi. Nortovning yurgizish vintilli tokarlik vintkesar, tishkesar va boshqa stanoklari, bu sohada qilgan ishlari dastgohlar konstruksiyalarini takomillashtirib borishiga, yangi-yangi maxsus dastgohlarni yaratilishiga sabab buladi.

Ma’lumki, hozirgi zamon dastgohlari har tomonlama keskin takomillashgan bo’lib, har xil murakkab detallarni tez va sifatli, aniq ulchamli, toza qilib yuqori ish unumdorligi bilan tayyorlashni ta’minlaydi. Keyingi yillarda dastgohsozlar detallar berilgan dastur asosida ishlov beruvchi avtomatik stanoklar, avtomatik liniyalar yaratdilar. Bu esa detal ishlab chiqarish bilan bog’lik barcha jarayonlarni kamrovchi tez ishlaydigan, eng tejamli stanoklardir.

Birichi raqam dastur bilan boshqariladigan dastgohlar (RDB) XX asrni 60 yillarida yaratilgan va hozirgi vaqtda juda keng ko’llanilmoqda. Bu sohada V.I.Dikushin, N.S.Acherkan, D.N.Reshetov, G.A.Shaumyan va boshqa olimlarning xizmatlari g’oyat katta.

Ushbu uslubiy qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2006 yil tasdiqlangan va shu asosida Namunaviy o’quv rejasida «Raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar» fanidan jami 36 soat ajratilgan, shundan 16 soat ma’ruza va 20 soat laboratoriya mashg’ulotlaridan iborat.

Bu fanni o’rganish jarayonida o’qitishning yangi pedagogik texnologiyalari asosida, o’qitishning muammosi ta’lim usullaridan foydalanish o’z ifodasini topgan. Demak, har bir darsni o’qitish jarayonida zamonaviy asbob – uskunalar, ko’rgazmali qurollar, modellar, maketlar, moslamalar, maxsus o’quv ustaxonalari, laboratoriyalardan foydalanishni nazarda tutadi.

Mavzular

- 1-Mavzu Stanoklarni dastur bilan boshqarish haqida asosiy tushunchalar
- 2-Mavzu RDB dastgohlar uchun boshqaruvchi dasturlar tayyorlash, RDB stanoklar klassifikatsiyasi
- 3-Mavzu RDB tokarlik stanoklari, RDB tish firezalash dastgohlari
- 4-Mavzu Boshqaruvchi dasturlar uchun axborot tayyorlash. Axborotni kodlash

1-Mavzu	STANOKLARNI DASTUR BILAN BOSHQARISH HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR
----------------	---

Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mavzu</i>	STANOKLARNI DASTUR BILAN BOSHQARISH HAQIDA ASOSIY TUSHUNCHALAR
<i>Ma'ruza rejasi (informasion ma'ruza)</i>	1.Stanoglarni dastur bilan boshqarish sistemalarining tiplari 2.Stanoglarni siklli dastur bilan boshqarish. 3. RDB sistemalarining klassifikasiyasi.
<i>O'quv mashg'ulotning maqsadi:</i>	Talabalarga stanoklarni dastur bilan boshqarish to'g'risida umumiy ma'lumotlar berish va ularda texnik tassavurlarni shakllantirish.
<i>Pedagogik vazifalari:</i>	<i>O'quv faoliyat natijasi.</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Stanoglarni dastur bilan boshqarish sistemalari xaqida tushuncha beradi. • Stanoglarni siklli dastur bilan boshqarish to'g'risida tushunchalar beradi. • RDB sistemalarining klassifikasiyasi xaqida ma'lumot beradi. 	1.Stanoglarni dastur bilan boshqarish sistemalari xaqida tushunchaga ega bo'ladilar. 2. Stanoglarni siklli dastur bilan boshqarish to'g'risida tushunchalari shakllanadi. 3. RDB sistemalarining klassifikasiyasi xaqida tushunchaga ega bo'ladilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ma'ruza, ko'rgazmali, "Qanday" texnikasi
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim berish vositalari.</i>	Kompyuter, proyektor, ko'rgazmali qurollar
<i>Ta'lim berish sharoitlari</i>	O'quv texnik vositalari bilan jihozlangan auditoriya

O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi.

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta’lim beruvchi</i>	<i>Ta’lim oluvchilar</i>
<i>1. Fanga kirish (15 daqiqa)</i>	1.1. Yangi ma’ruza mavzusi va rejasi bilan tanishtiradi. (1-ilova)	Tinglashadi va yozib olishadi
	1.2. Mavzuga oid adabiyotlar ro‘yxati bilan tanishtiradi va ma’ruza bo‘yicha baholash mezonlari tushuntiriladi. (2-ilova)	Tinglashadi va yozib olishadi
<i>2-bosqich Asosiy bosqich (55 daqiqa)</i>	2.1. Stanoglarni dastur bilan boshqarish sistemalarining tiplari xaqida ma’lumot beradi. (3-ilova) va (3.1-ilova)	Tinglaydilar, yozadilar.
	2.2. Stanoglarni siklli dastur bilan boshqarish xaqida ma’lumotlar beradi. (4-ilova)	Tinglaydilar, yozadilar.
	2.3. RDB sistemalarining klssifikasiyasi to‘g‘risida ma’lumot beradi. (5-ilova)	Tinglaydilar, yozadilar.
	2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida “Qanday” texnikasidan foydaladi va ularga savollar beriladi. (6-ilova)	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
<i>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</i>	3.1. Mavzu bo‘yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.	Savollar beradilar.
	3.2. Mustaqil ta’lim uchun « Stanoklarni dastur bilan boshqarish haqida asosiy tushunchalar» mavzusini taqdim etadi va mazkur o‘quv materialini o‘rganib kelish vazifasini beradi.	Vazifani yozib oladilar.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Keyingi yillarda quyimkorlikda, bosim bilan ishlashda qator progressiv usullarning joriy yetilishi zagotovka aniqligini orttirib, mexanik ishlovga mo'ljallangan quyim qiymatini ancha kamaytirishga olib keldi, lekin shunga qaramay, aniq o'lchamli, tekis yuzali detallarni tayyorlashda kesib ishlash usuli hozircha yagona usulidir.

Bu yerda shuni qayd etish zarurki, materiallarni kesib ishlash uchun mo'ljallangan qo'yim qiymatini kamaytrish, ayrim hollarda mutlaq bo'lmasligi sababli materiallarni kesib ishlash hajmi kamaya boradi degan xulosaga kelishi yaramaydi. Masala shundaki, borgan sari kime, hnergetika, hlektronika, atom va raketa texnikasining rivojlanishi, mashinalar ish parametrlarining ortishi, yangi-yangi juda puxta, turli maxsus xossalari qotishmalarning yaratilishiga, detallarga nisbatan aniqlik, sifat talablarning ortishiga, murakkab konstruktiv shakllarning joriy etilishiga olib kelayotir.

Bu faktorlar kesib ishlash usulini ma'lum miqdorda qirindi ajartishga qaramay (avtotraktor sanoatida) zagotovka og'irligining qariyib 20-25 foizi hajmini ortishga olib kelayotir.

Demak, metallarning ishlovda sifat va iqtisodiy ko'rsatkichi, texnologikligi bo'yicha kesib ishlash usulining o'rnini bosadigan usul yaratilmaguncha, bu usul rivojlana boradi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda detal tayyorlashga sarflanadigan vaqtning 40 – 50 foizini kesib ishlov berish jarayoni tashkil etadi. Binobarin, materiallarni kesib ishlash usuli mashinasozlik sanoatida asosiy o'rinni egallaydi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan davlatlar qatoriga yetib olishi uchun ishlab chiqarishning barcha sohalari kabi mashinasozlik sanoati ham yuqori darajada rivojlanishi davlatimizning qator xujjatlarida ta'kidlab o'tilgan. Bu ulug'vor ishlarni bajarishda ratsional ishlov berish usullarini tanlash masalasi katta ahamiyatga ega. Materiallarni kesib ishlash fanining asosiy vazifasi – bu jarayonning fizikaviy mohiyatini har taraflama chuqur o'rganish ilk mavjud qonuniyatlarga asoslanib, rasional ishlov usullarini belgilash bilan kesish jarayonini ijobiy boshqarishdir. Bu jarayonning fizikaviy asoslarini o'rganishga birinchilar qatorida Kokil (artelleriya kapitani 1848-1849, Fransiya), Jossel (1864, Fransiya) harakat qilgan, lekin kesish nazariyasini fizikaviy asoslarini o'rganishda dunyoda birinchi bo'lib tanilgan va bu Fan nazariyasiga asos solgan olim S.Peterburg tog' injenerlari tayyorlash institutining professori I.A. Time bo'ladi. (1838 – 1920)

I.A.Time 1870 yilda o'tkazgan tadqiqotlarning natijalarini «Soprotivleniye materialov i dereva rezaniyu» («Metallar va yog'ochning kesilishga qarshiligi»), va 1884 yilda «Obrazovaniye strujek pri obrabotke plastichnx materialov», («Plastik materiallarni ishlashda qirindining ajralishi») asarlarida yoritdi.

Professor K.A.Zvorikinni bu sohada qilgan ishlari 1893 yilda «Rabota i usiliye, neobxodime dlya otdeleniya metallicheskix strujek»

(Metall qirindining ajartilishi uchun zaruriy kuch va ish) asarida yoritilgan. U kesish jarayonida keskichga ta'sir yetuvchi kuchlarni aniqlash uchun dinamometr dan foydalanadi. F.Teylo (1880-1906) o'zining tajribalari orqali kesish nazariyasi yangi erani boshlab berdi, «Iskusstvo rezat metall» kitobida o'zining tajriba natijalarini bosib chiqaradi. Teylor tezkesar po'latni ixtiro qildi.

Professor Nikolson (1902-1904, Angliya) Teylorning tezkesar po'latni ixtiro qilgandan keyin, qirindi hosil bo'lishi jarayonini, kesish kuchlarining kesish jarayonida o'zgarishini tekshirdi va diagrammalar tuzdi. Professor Ripper (1913, Angliya) har xil faktorlarga asosan, kesish tezligining o'zgarishini va keskichning yeyilishini o'rgandi.

Ayniqsa Y.G.Usachevning (1878 – 1941 y.) o'tkazgan tajribalari diqqatga sazovordir. U metallarni kesish jarayonida keskich kontakt yuzalaridagi harorat miqdorini aniqlash metodini: kesish rejimlarini o'zgartirish bilan qirindi turini, yo'nilgan yuza tekisligini o'zgartirish bilan o'simta hosil bo'lish sabablarini aniqladi.

Keyingi yillarda materiallarni kesib ishlash fani keng sur'atlar bilan o'sadi, ya'ni takomillashgan dastgohlar, kesgichlar yaratilishi turli kesib ishlash usullaridagi (parmalash, frezalash, jilvirlash va boshqalar) qonuniyatlarni chuqurroq belgilashga imkon beradi. Metallarni kesib ishlashda fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va qo'shayotgan olimlar qatoriga -V.D.Kuznesov, I.M.Besprozvanny, V.A.Krivouxov, G.I.Granovskiy, A.M.Rozenberg, A.I.Isayev, N.N.Zorev, P.P.Grudov, M.N.Larin va novator ishchilarga – G.S.Bortkevich, P.B.Bkov, V.K.Seminskaiy va boshqalarni kiritsak bo'ladi. Materillarni kesib ishlash nazariyasiga o'zbek olimlari – G.I.Yakunin, V.A.Mirboboyev, M.T.Bolabekov, F.Y.Yakubov, X.Xonjonov, N.A.Mo'minovlar katta hissa qo'shdilar.

Olimlar novator ishchilar bilan hamkorlikda konstruksion materiallarni kesib ishlash fanini kamolotga yetishga g'oyat ulkan hissa qo'shmoqdalar. Lekin shunga qaramay, turli

konstruksion materiallarni kesib ishlashda sodir bo‘luvchi fizika-kimyoviy va mexanik detallarga sifatli ishlov usullarini belgilash kabi vazifalar hali to‘la hal yetilgan emas.

Dastgohni raqamli dastur bilan boshqarish (RDB) deyilganda, dastgohda zagotovkaga boshqaruvchi dastur bo‘yicha ishlov berish tushuniladi. Bu dasturda ishlov berishga oid ma‘lumotlar raqamdor shaklida keltiriladi. (29*)

Boshqaruvchi dastur – ma‘lum zagotovkaga ishlov berish uchun dastgohning ishlash tartibini belgilovchi dasturlash tilida yozilgan komandalar majmuasidir. Boshqaruvchi dasturlar (EHM dan foydalanmasdan) va avtomatlashtirilgan usulda (EHM qo‘llanib) tayyorlash mumkin.

Boshqaruvchi dastur kadri, so‘zi, nomeri va kadr formati, shuningdek, RDB manzili (adresi) tushunchalari bor.

Boshqaruvchi dastur kadri - kadrning zagotovkaga ishlov berish jarayoni ko‘rsatgichlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni va (yoki) boshqarishga oid boshqa ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan tarkibiy qismidir.

RDB manzili (adaresi) - boshqaruvchi dastur so‘zining bir qismi bo‘lib, u shu so‘z tarkibidagi ma‘lumotlarning vazifasini belgilaydi.

Boshqaruvchi dastur kadri nomeri - kadr boshidagi so‘z soni bo‘lib, boshqaruvchi dasturdagi kadrlarning navbatini belgilaydi.

Boshqaruvchi dastur kadrining formati – so‘zlar soni bo‘lgan boshqaruvchi dastur kadrda so‘zlarning tuzilmasi va joylashishining shartli yozilishi.

Asosiy kadr - tanaffusdan keyin zagotovkaga ishlov berish jarayonini davom ettirish uchun zarur bo‘lgan barcha ma‘lumotlarni o‘z tarkibiga olgan boshqaruvchi dastur kadridir. U maxsus ishora bilan belgilanadi.

Mutlaq (absolyut) o‘lcham - boshqaruvchi dasturda ko‘rsatiladigan va nuqtali qabul qilingan hisoblash holatiga nisbatan holatini ko‘rsatadigan chiziqli yoki bo‘rchak o‘lchami.

Orttirmadagi o‘lcham - boshqaruvchi dasturda ko‘rsatiladigan va dastgoh ish organining avvalgi holatini belgilaydigan nuqtaning koordinatalariga nisbatan nuqtaning holatini ko‘rsatadigan chiziqli yoki burchak o‘lcham.

Dastgohning nol nuqtasi - dastgoh koordinatalarining boshi deb qabul qilingan nuqta.

Dastgohning qat'iy belgilangan nuqtasi – dastgohning nol nuqtasiga nisbatan aniqlanadigan va dastgoh ish organining holatini belgilaydigan, holatini aniqlash uchun foydalaniladigan nuqta.

Ishlov berishni boshlash nuqtasi – konkret zagotovkaga ishlov berishni boshlash nuqtasi.

Detalning nol nuqtasi – detaldagi nuqta bo‘lib, detalning barcha o‘lchamlari shu nuqtaga nisbatan beriladi.

Erkin nol – RDB tizimi ish organining siljish (ko‘chishi) ni hisoblash boshini dastgohning nol nuqtasiga nisbatan istalgan holatga qo‘yish xossasi.

Dastgohni pozision, konturli va adaptiv RDB xillari bor.

Pozitsion RDB – boshqarish xili bo‘lib, bunda dastgohning ish organlari topshiriqdagi nuqtalarga ko‘chish troyektoriyalari ko‘rsatilmagan holda ko‘chadi. Mazkur boshqarish asosan, parmalash – teshik yo‘nish dastgohlarida va asbobning o‘qi topshiriqdagi nuqtaga o‘rnatilgandan keyin ishlov berish boshlanadigan boshqa dastgohlarda qo‘llaniladi.

Konturli RDB – boshqarish moduli, bunda – dastgohning ish organlari ishlov beriladigan zarur kontur hosil bo‘lmagunga qadar topshiriqdagi troyektoriya bo‘ylab va topshiriqdagi tezlikda siljiydi. Bunday boshqarish shakl yasovchi murakkab xarakterli harakatlar mavjud bo‘lgan.

Adaptiv RDB – boshqarishning bu usulida zagotovkaga ishlov berish jarayonini ishlov berish sharoitlarining o‘zgarishiga avtomatik moslanadi. Kesish chuqurligi, zagotovka ahsayosining kattaligi, «dastgoh – moslama – asbob – detal» tizimining birkligiga va hakoza qara o‘zgaradi.

RDB tizimi deyilganda, bajaradigan ish jihatdan o‘zaro bog‘langan va o‘zaro tasirida bo‘lgan, dastgohning boshqarilishini taminlaydigan texnikaviy va dasturli vositalar majmuasi tushiniladi. RDB tizimlari ochiq va berk bo‘ladi.

Boshqarishning berk tizimlari topshiruvchi axborotdan hamda boshqaruvchi dasturning bajarilishi va texnologik jarayonning qanday kechayotganligi to‘g‘risidagi teskari bog‘lash axborotdan birgalikda foydalanish asosida ishlaydi.

Boshqaruvchi dastur tashuvchilarga yoziladi. Dastur tashuvchilar tashqi va ichki bo‘ladi. Tashqi dastur tashuvchilarga perfokartlar, perfolentalar, magnit tasmalar, sim,

barabanlar va disklar, kinolentalar kiradi. Ichki dastur tashuvchilarga shtekkerli panellar va kontatorlar, almashib o'lichagichlar yoki knopkalar (tugmachalar) o'rnatilgan panerlar, elektron nur trubkalar va hakoza kiradi. Tashqi dastur tashuvchilarni tez almashtirish mumkin, ichki dastur tashuvchilari esa RDB qurilmasining ajralmasi qismi bo'ladi.

Barcha dastur tashuvchilar sig'imi, axborotni yozish va hisoblash tezligi, tez almashtirilishi (tashqi dastur tashuvchilar), puxtalik narxi va hakoza bilan tavsiflanadi.

RDB tizimlar dasturni ifodalaydigan axborot xarakteriga qarab uzluksiz, diskret va diskret - uzluksiz bo'ladi. Uzluksiz tizimlarga fazali tizimlar misol bo'la oladi. Ularda dastur fazasiz dasturlanadigan qo'shimchalarga mutanosib (proporsional) bo'lgan sinusoidal kuchlanish bilan beriladi. Ko'pchilik frezalash dastgohlari RDB uzluksiz tizimlar bilan jihozlangan.

Diskret tizimlarga - qadam-impulsi va hisob-impulsi tizimlar kiradi. Ochiq tizimlarga kiradigan qadam impulsi tizimlarni harakat manbai sifatida momentni kuchaytirigichning qadamli dvigatellar ishlatiladi. Hisoblash impulsi tizimlarni teskari bog'lanish datchiklari bilan jihozlangan hisoblash chizmalardan foydalaniladi. Bunday tizimlar turli guruhdagi zamonaviy dastgohlardan keng qo'llaniladi.

RDB qurilmasi deyilganda, boshqaruvchi dasturga va boshqariladigan obektga holati to'g'risidagi axborotga muvofiq stanokning ish bajaruvchi organlariga boshqarish tasirini ko'rsatuvchi qurilma tushuniladi. RDB qurilmasining quyidagi to'rt xil vazifasini ko'rsatish mumkin:

1. Detalning shakllanishini boshqarish (RDB) ning geometrik vazifasi. Bu vazifa chizmadagi geometrik axborotni muayyan buyumga aylantiruvchi shakl yasovchi harakatlarga o'zgartirishdan iborat.

2. Dastgohning diskret avtomatikasini boshqarish (RDB ning mantiqiy vazifasi). Bu vazifa texnologik ta'minot bilan bog'liq. Bo'lgan bir qancha ishlarni avtomatikasini boshqarish; asosiy harakat va surish yuritmalaridagi almashlab ulashlarni boshqarish; siqish qurilmalarini, sovitish, moylash, ihotalarini siljitish va hakoza ishlarni boshqarish kiradi. Bu vazifalarni hal etish uchun sikli elektroavtomatika tizimlari yaratiladi.

3. Dastgohli ish jarayonini boshqarish (RDB ning texnologik vazifasi).

Bu vazifa ishlov beriladigan detallarning talab etilgan sifatiga kam xarajatlar bilan erishishdan iborat. Sifatning asosiy ko'rsatkichlari sirtlariga ishlov berish aniqligi va ularni

o‘zaro joylashtirish aniqligi, shuningdek, g‘adir-budirlik darajasidan iborat. Dastgohning ish jarayonini boshqarishga asbobning holatini nazorat qilish va aniqlash, uni o‘lchamlarga moslab o‘rnatish ishlari misol bo‘la oladi.

4. Atrof ishlab chiqarish muhiti bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘lish (RDB ning terminal vazifasi). Bunday o‘zaro ta‘siriga operator va boshqarish tizimlar bilan muloqotda bo‘lishi kiradi.

Geometrik va texnologik axborot ko‘lami.

Geometrik axborot detal va asbobning shaklini, ulardan elementlar yuzalarning o‘lchamlarini va ularning fazoda o‘zaro joylashishni tasvirlaydi.

Texnologik axborot detalning texnologik tavsilotlarini va ularni tayyorlash sharoitlarini tavsirlaydi.

RDB dastgohlarda barcha axborot ma‘lum kod yordamida kodlanadi. Kod qator qoidalardan va bir turdagi axborotdan boshqa turdagi axborot uzatilishida qo‘llaniladigan qator shartli belgilardan iborat. Ikkilik axborotning birinchi darajasi eng kichik birligi bayt deb ataladi. Bayt – ikkita axborot miqdorini bildiruvchi birlik. Bir bayt sakkiz baytga teng.

Kilobayt ikkita axborot miqdorini ko‘rsatuvchi birlik bayt kilobayt $1024 (= 10^6)$ baytga teng.

Megabayt – ikkilik axborot miqdorini ko‘rsatuvchi birlik. Bir megabayt $1048576 (= 10^6)$ baytga teng.

Mashina so‘zi – EHM bloklarining darajaligiga qarab mos holda 1,2 yoki 4 bayt (8,16 yoki 32 bit) ga teng axborot sig‘imi.

Tayanch nuqta - hisoblangan trayektoriyaning nuqtasi. Bu nuqtada yo shu trayektoriya tasvirlovchi qonun bo‘yicha o‘zgaradi.

Ekvidistanta - detal konturning chiziqlaridan teng masofadagi chiziq.

Approksimasiya - bir funksional bog‘lanishni ma‘lum aniqlikda boshqa bog‘lanish bilan almashtirish jarayoni.

Interpolyatsiya – tekislikda fazoda asbob markazining harakat trayektoriyasidagi oraliq nuqtalarning koordinatalarini olish (yoki hisoblash).

Geometrik element – hisoblangan trayektoriyani yoki detal konturining bir qonun bo‘yicha bir koordinatalar tizimida ko‘rsatilgan uzluksiz qismi.

Interpolyator – RDB tizimini hisoblash bloki. Bu blok dastgoh ish organlarini koordinata o‘qlari bo‘ylab siljishi uchun boshqaruvchi ta’sirlarni navbati bilan beradi. Bunda ish organlari dastgohni boshqarish dasturida ko‘rsatilgan tayanch nuqtalarning koordinatalari o‘rtasidadagi funksional bog‘lanishga mos holda siljiydi.

RDB dastgohlarda ishlov berish xususiyatlari

RDB dastgohlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning ish dasturi, jumladan, ish organlarining siljish kattaligi, tezligi va yo‘nalishi mos dastur tashuvchiga yozilgan kodlarda ko‘rsatilgan. Boshqaruv dasturi tayyorlash jarayoni detalga ishlov berish jarayonidan boshqa dasturni bevosita setsda dastgohni boshqarish pultini tayyorlashga imkon beradigan RDB tizimlari ham paydo bo‘lgan.

Chizmadagi axborotni moddiy detal o‘zgartirish jarayoni quyidagicha kechadi. Avval boshqaruvchi dastur ishlab chiqiladi. Bu dastur ma’lum kod bilan dastur tashigich yoziladi. So‘ngra dastur tashigich RDB qurilmasi o‘rnatiladi. Dasturni kiritish qurilmasi (DKQ) dastur tashigichga topshiruvchi axborot (TA) ni hisoblaydi va uni elektr signallar ko‘rinashida ikkita kanal bo‘ylab junatiladi:

- 1) texnologik komandalar qurilmasi (TKQ) orqali texnologik komandalarni bajaruvchi yelementlarga;
- 2) dasturni ishlash qurilmasi (DIQ) va yuritmasini boshqarish qurilmasi (YUBQ) orqali dastgohning ish organlarini surish yuritmalarini (SYU) ga yo‘naltiradi. Boshqaruv dasturning bajarilishi to‘g‘risidagi axborot teskari bog‘lanish datchiklari (TDB) va teskari bog‘lanish qurilmasi (TBQ) orqali dasturni ishlash qurilmasiga keladi.

Boshqaruvchi dastur RDB dastur amalga oshirilgach moddiy detal paydo bo‘ladi. Bu detal o‘zining chizmasidagi geometrik va texnologik axborotlarga mos keladi. Boshqa shakldagi detalga ishlov berish uchun RDB qurilmasiga mos boshqaruvchi dastruli dastur tashigichni o‘rnatish yetarli bo‘ladi.

Boshqaruvchi dasturni ishlab chiqish (tayyorlash) jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

- 1) zagotovka va uni olish (tayyorlash) texnologiyasini tanlash;
- 2) samarali ishlov berishni ta’minlaydigan RDB dastgohni tanlash va uning texnik tafsilotlarini belgilash;

- 3) detalning texnologik chizmasini ishlab chiqish, texnologik bazalarni aniqlash va zagotovkani mahkamlash usulini tanlash;
- 4) kesish asbobini va uning parametrlarini tanlash;
- 5) yuzaga ishlov berish tartib – navbatini (marshrut texnologiyani) va barcha texnologik parametrlarni tanlash va aniqlash;
- 6) koordinatalar o‘qini tanlash va kontur tayanch nuqtalarining koordinatalarini hisoblash;
- 7) asbob markazining (masalan, freza o‘qining) siljish trayektoriyasini aniqlash;
- 8) ekvidistanta tayanch nuqtalarining koordinatalarini hisoblash;
- 9) approksimasiyalash qadamini aniqlash va ekvidistantaning geometrik elementlarini approksimasiyalash;
- 10) oraliq nuqtalar koordinatalarini hisoblash va ularning jadvalini tuzish;
- 11) Boshqaruvchi dasturni qo‘llaniladigan interpolyatorning kodi bilan yozish;
- 12) Axborotni dastur tashigichga yozish;
- 13) Interpolyatsiyalash;
- 14) Dasturni ikkilamchi dastur tashigichga yozish;
- 15) Uskunani olingan boshqaruvchi dastur (yoki bevosita interpolyator) dan boshqarish;

Dastlabki beshta bosqich o‘z mazmuniga ko‘ra, universal dastgohda ishlov berishni texnologiyani tayyorlash bosqichlarga o‘xshaydi. Ular korxonaning texnik bo‘limida bajariladi. 6 – 15 bosqichlar RDB dastgolarga xizmat ko‘rsatuvchi maxsus bo‘limda ishlab chiqiladi. Oxirgi bosqich sexda sozlovchi yoki operatorning ish o‘rnida bajariladi. Boshqaruvchi dastur texnolog va dasturchi – texnik nazorati ostida sinab ko‘riladi.

Qayd etish lozimki, ko‘rsatilgan bo‘limlar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa bo‘ladi, yani xujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflar mos bo‘limlarga o‘zatiladi.

Nazorat savollari:

1. RDB dastgohlar deyilganda nima tushiniladi?
2. Boshqaruvchi dastur nima?
3. Boshqaruvchi dastur kadri, so‘zi, raqami va kadr formati haqida so‘zlang?
4. RDB dastgohlarni tasnifi haqida gapiring?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash kesuvchi asboblari va dastgohlar. Toshkent: - 2004 y.
2. Gjirov R.I. Programmirovaniye obrabotki na stankax CHPU. Moskva: - 19g.
3. Metallorejushiye stanki s CHPU. Moskva:- 1974 g

2-Mavzu	RDB dastgohlar uchun boshqaruvchi dasturlar tayyorlash. RDB stanoklar klassifikatsiyasi
----------------	--

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.

<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 – 80 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Ma'ruza-muloqot</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash. 2. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullari. 3. RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	RDB stanoglar uchun boshqaruvchi programmalar tayyorlash bo'yicha talabalarda keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.
<i>Pedagogik vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash haqida ma'lumot beradi. • Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullari to'g'risida tushuncha beradi. • RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash haqida ma'lumotlar beradi. 	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash to'g'risida tushunchalar hosil qiladilar; • Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullarini o'rganadilaor. • RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash bilan tanishishadi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali, ma'lumotli, anjuman ma'ruza, "Delfi" texnikasi.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, doska, kompyuter.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriY.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

№		Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1	I bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (10 min)	1.1. Ma'ruza mavzusi e'lon qiladi va mavzu rejasi bilan tanishtiradi. (1-ilova)	Yozib boradilar
		1.2. Mavzuga oid foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini namoyish qiladi. (2-ilova)	Yozib olishadi
		1.3. Bilimlarni faollashtirish jarayonida faol ishtirok etishgan talabalarni baholash uchun baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar
2	II bosqich. Asosiy, informasion (55 min.)	2.1. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash haqida ma'lumot beradi.(4-ilova)	Tinglaydilar va yozib oladilar
		2.2. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullari xaqida ma'lumot beradi.(5-ilova)	
		2.3. RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash haqida ma'lumotlar beradi.. (6-ilova)	Tinglaydilar va yozib oladilar
		2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida berilgan savollarni yoritishda "Delfi" texnikasidan foydalangan holda guruhlarga savollvr berilaadi. (7-ilova)	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3	III bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzuni umumlashtiradi va umumiy xulosalar yasaydi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi.	Tinglaydilar.
		3.2. Mustaqil ta'lim uchun nazorat savollariga javob tayyorlab kelish vazifasini beradi	Vazifani yozib oladilar.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Axborotni uzatish, saqlash va o'zgartirishda, shu jumladan, RDB tizimlarida kod uch qismdan: siljishlar kodi, texnologik komandalar

k o d i va z a r u r m a n t i q i y axborot kodidan iborat bo'ladi. Siljishlarni tavsiflovchi raqamlarni ko'rsatishda sanoq tizimi kabi aniqlanadigan kodlardan foydalaniladi. Bunday kodlarda raqamlar polinom ko'rinishda yoziladi:

$$Nq = R_{n-1} q^{n-1} + R_{n-2} q^{n-2} + \dots + R_0 q^0 + R_1 q^1 + R_2 q^2 + \dots,$$

Bu yerda: h – ko'effitsent: stanok tizimidagi simvollar (raqamlar dan biri; p – xona (razryad) nomeri ($p=0$ asosiy razryad deb qabul qilinadi); q – tizimdagi asos.

O'nlik sanoq tizimi. Bu tizimda asos $p=10$ simvollar (ko'effitsentlar) sifatida esa o'nlik raqamlar 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, dan foydalaniladi. Masalan, o'nlik tizimda 345,3 raqamini quyidagi polinom ko'rinishida keltirish mumkin:

$$345,3 = 3 \cdot 10^2 + 4 \cdot 10^1 + 5 \cdot 10^0 + 3 \cdot 10^{-1}$$

Mazkur tizimning hajmi katta, lekin undan hisoblash texnikasining qurilmalaridan foydalanish qiyin, chunki o'n xil holatli yelemntni tayyorlash juda murakkab bo'ladi.

Unitar sanoq tizimi. Bu tizimda bitta raqamli simvol 1 bo'ladi. Har qanday faqat butun son bir raqamlar to'plami bilan ifodalanadi, masalan, 5 soni $1+1+1+1+1$; + 3 soni $-1+1$; $1+1+1+1+1+1+1+1+1+1+1$ va h.k. ko'rinishida keltiriladi. Bu tizim oddiy bo'lib, uni amalga oshirish oson, lekin juda qo'pol tuzilgan.

Ikkilik sanoq tizimi. Bu tizimda asos $t=2$ bo'ladi, simvollar sifatida yesa, ikkita raqam - 0 va 1 foydalaniladi jadval 1 (str.201 b.). Masalan, bu tizimda 38,5 sonini quyidagi polinom ko'rinishda yozish mumkin: (2)

$$38,5 = 1 \times 2^5 + 0 \times 2^4 + 0 \times 2^3 + 1 \times 2^2 + 1 \times 2^1 + 0 \times 2^0 + 1 \times 2^{-1} = 1 \times 32 + 0 \times 16 + 0 \times 8 + 1 \times 4 + 1 \times 2 + 0 \times 1 + 1 \times \frac{1}{2}$$

Sanoq tizimidan foydalanganda son, odatda polinom ko'rinishda emas, balki simvollarni sanab ko'rsatish yo'li bilan yoziladi. Masalan, keltirilgan 38,5 soni 100110,1 ko'rinishida yoziladi. Ikkilik sanoq tizimi o'zining oddiyligi va tejamliligi bilan farq qiladi. Bu tizim hisoblash texnikasida va avtomatikadan keng qo'lamda qo'llaniladi, chunki u turli asboblar, qurilmalardan va - va 1 simvollarga mos keluvchi ikkita barqaror holatga ega bo'lgan elementlardan foydalanishga imkon beradi.

Ikkilik tizimda sonlarni yozish tizimidagiga nisbatan ancha qo‘polroq bo‘ladi. Masalan, sonni ikkilik tasvirlardagi raqamlar miqdorida 13,3 marta ko‘p bo‘ladi. Bu kamchilik ikkilik – o‘nlik, ikkilik, sakkizlik va h.k. aralash sanoq tizimlarida bo‘lamaydi.

- *Ikkilik – o‘nlik tizimi.* Aslida unli bo‘lgan bu tizimda 0,1, 2,6,...9 simvollari ikkili kod bilan yoziladi. Masalan, raqami 000,1 raqami – 0001; 2 raqami – 0010, ... 9 raqami – 1001 tasida ko‘rinishida yoziladi. Mazkur tizimda 0 dan 999 gacha bo‘lgan sonlarni yozish uchun uchta ikkili tetrazda (to‘rtlik) talab yetiladi. Masalan , 941 soni 100101000001,837 soni - 100000110111 va h.k. ko‘rinishda bo‘ladi.

Agar ikkilik – o‘nlik tizimda ikkilik tizimning har qaysi razryadning normal qiymati (vazni) dan foydalanilsa, tetradadgi xonalar qiymati $2^3 \times 2^2 \times 2^1 \times 2^0$, yoki 8421 bo‘ladi. Razryadlari bunday vaznga yega bo‘lgan tizim ikkilik - o‘nlik vazniy kodi 8421 deb ataladi. Razryadlar bo‘yicha vaznlarning boshqacha to‘plamlari bilan yoziladigan kodlar, masalan, 2421, 2511, 7421 va h.k. kodlar ham ishlab chiqilgan. Sanoq tizimlari (1) adabiyotda batafsil bayon yetilgan.

RDB dastgohlardagi dastur tashigichlar.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgandek, dastur tashigichlar tashqi va ichki bo‘ladi. Tashqi dastur tashigichlarga: perfokartalar, perfolentalar, kinolentalar, magnit lentalar, sim, barabanlar va disklar kiradi. Ichki dastur tashigichlar shtekkerli panelar va kommutatorlar almashlab o‘lchagichlar yoki knopka (tugmachalar) o‘rnatilgan panellar, elektronurli trubkalar va h.k. dan iborat.

Perfokarta (1 rasm) burchagi qirqilgan qalinligi 18 mm li qalin qog‘ozdan iborat. Qirqilgan burchak axborotning yozilishi boshini belgilaydi. Axborot to‘g‘ri burchakli (3X1,5 mm) yoki dumaloq (0 3mm) teshiklar shaklidagi kod bilan yoziladi. Teshiklar yasash perforasiyalash deb ataladi.

Perfokartalar arzon va ularni oson tuzatish mumkin. Lekin ular RDB dastgohlar uchun yaramaydi, chunki barcha axborotni yozish uchun juda ko‘p perfokartalar talab etiladi.

Perfolentalarda ko‘rsatilgan kamchiliklar yo‘q va ular RDB dastgohlarda keng ko‘lamda ishlatiladi. Ular qalinligi 0,1 mm li yeni 17,5; 22,5 va 25,4 mm li qog‘ozdan tayyorlanadi. Axborot perfolentalarga diametri 1,83 mm li (2-rasm) kod teshiklar

vositasida yoziladi. Teshiklar sirtlari orasi $2,54 + 0,05$ mm bo'ladi. Yetakchi (nakliyot) yo'lchadagi teshiklar diametri 1,17 mm ga teng.

Yeni 17,5 mm li perfolentadan beshta, eni 22,5 mm li da oltita yoki yettita, eni 25,4 mm li da esa sakkizta kod yo'lchalari joylashadi. Axborot perforatorlar (teshik yasagichlar) yordamida yoziladi.

Magnitli dastur tashigichlar perfokartalar va perfolentalardan farq qilib, tasma, sim, baraban va disk shaklida yasaladi, katta sig'imi va puxta bo'ladi. Bundan tashqari, ulardan axborotni ko'p marta va qayta yozishda foydalanish mumkin.

Magnit lenta polimer ashayodan tayyorlangan asos va unga qoplangan ishchi fermagnit qatlam asosga maxsus bog'lovchi modda yordamida yopishtirilgan. Asosning qalinligi 60 -120 mkm, ferromagnit qatlami qalinligi yesa kukun donalarining o'lchamlari 0,3 – 09 mkm bo'lganda 5 – 20 mkm ni tashkil etadi. Tasma yeni 35 mm. Lentani 200 m.s. gacha tezlikda tortish va qayta o'rash mumkin.

Axborot magnit lentaga magnit kallak yordamida yoziladi. Bu kallak yupqa permolloydan yasalgan ikkita yarim xalqa tayyorlangan maxsus elektromagnitdan iborat. Magnit kallakning o'zagida ikkita tirqish bor. Yuqorigi tirqish jez qistirma bilan to'latilgan. Bunday qistirma o'zakning qoldiq magnitlanganligi kamaytiradi. Quyi tirqish (20 -560 mkm) ochiq bo'lib, tasmaning ishchi ferrmomagnit qatlami bilan o'zaro ta'sirida bo'ladi. O'zakka umumiy nuqtasi zaminlangan (yerga ulangan) bitta yoki ikkita chulg'am o'rnatilgan.

Kallakning chulg'amlaridan biriga (masalan, o'ng chulg'amga) tok impulsi berilganda o'zakda magnit paydo bo'ladi. Bu magnit maydon ochiq tirqishdan fermomagnit qatlam orqali tutashadi. Natijada bu qatlamning ichki qismi (10 mkm ga yaqin) juda aniq yo'nalishda magnitlanadi va dipol – elementlar o'zgarmas magnit paydo bo'ladi. Kallakning ikkinchi (chap) cho'lg'amiga tok impulsi berilganda qutublar boshqacha joylashgan dipol paydo bo'ladi. Shunday qilib, kallakning tok impulsini berish yo'li bilan 1 va 0 simvollarni yozish mumkin bo'ladi. Har qanday dipol maydoni agar unga tashqi magnit maydonlar ta'sir etmasa, cheksiz uzoq vaqt saqlana oladi. Shuning uchun magnitli tashigichlardagi kodlangan axborotdan EHM ning xotirani uzoq vaqt saqlash qurilmalaridan foydalaniladi.

Magnit lentadagi axborot uni yozishda qo‘llanilganga o‘xshaydigan magnit kallak bilan o‘qiladi. Lenta uzluksiz siljiganda , dipol kallakdagi ochiq tirqishga yaqinlashganda uning kuch chiziqlari uzak orqali tutashadi va undagi magnit oqim miqdorini o‘zgartiradi. Shunda kallakning chulg‘amlarida EYUK induksiyalanadi.

Bu kuch foydali signal bo‘ladi. Magnit kallaklar soni tasmadagi yo‘lchalar soniga teng bo‘lishi lozim.

Boshqaruvchi dasturlar uchun axborot tayyorlash.

Detallarga ishlov berganda asbob va detal mos shakl yasovchi harakatlarni bajarib, bir-biriga nisbatan ma’lum trayektoriya bo‘yicha harakatlanadi. RDB dastgohlarda asbob markazi R ning harakat trayektoriyasi dasturlanadi. . O‘qituvchi keskichlar uchun asbob markazi R – asbob cho‘qqisidagi doira yoyining markazi: oxir frezalar, parmalar, razvetrkalar va zenkerlar uchun - asos markazi, sferik uchli oxir frezalar uchun - yarimsfera markazi va h.k. bo‘ladi. Agar ishlov berish jarayonida asbob radiusi detalning konturi bo‘ylab o‘zgaras, u holda asbob markazi R ning trayektoriyasi detalning konturiga nisbatan kvdistanta bo‘ylab harakati ishchi harakat bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, asbob markazi tayyorlanish harakatlarini va yordamchi harakatlarini ham bajaradi. Bunday harakatlarning xarakteri boshlang‘ich (nol) nuqtaning holatiga, moslamaning joylashishiga va h.k. ga bog‘liq. Shunday qilib, boshqaruvchi dasturni tuzish uchun yeng avval asbob markazining ishchi, tayyorlanish va yordamchi harakatlarining trayektoriyalarini aniqlash zarur.

Nazorat uchun savollar:

1. Sanoq tizimlari haqida so‘zlang?
 1. Dastur tashigichlar haqida gapirib bering?
 2. Axborot tayyorlash usullarini tushuntirib bering ?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barun V.A. Stanki s programmim upravleniyem i programmirovaniye obrabotki M. 1965
2. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash kesuvchi asboblari va stanoklar . Toshkent : - 2004 y.
3. Gjirov R.I. Programmirovaniye obrabotki na stankax CHPU. Moskva: - 1990 g.
4. Metallorejushiy stanki s CHPU. Moskva:- 1974 g

RDB dastgohlarda ishlov berish xususiyatlari

RDB dastgohlarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularning ish dasturi, jumladan, ish organlarining siljish kattaligi, tezligi va yo‘nalishi mos dastur tashuvchiga yozilgan kodlarda ko‘rsatilgan. Boshqaruv dasturi tayyorlash jarayoni detalga ishlov berish jarayonidan boshqa dasturni bevosita setsda dastgohni boshqarish pultini tayyorlashga imkon beradigan RDB tizimlari ham paydo bo‘lgan.

Chizmadagi axborotni moddiy detal o‘zgartirish jarayoni quyidagicha kechadi. Avval boshqaruvchi dastur ishlab chiqiladi. Bu dastur ma’lum kod bilan dastur tashigich yoziladi. So‘ngra dastur tashigich RDB qurilmasi o‘rnatiladi. Dasturni kiritish qurilmasi (DKQ) dastur tashigichga topshiruvchi axborot (TA) ni hisoblaydi va uni elektr signallar ko‘rinashida ikkita kanal bo‘ylab junatiladi:

2) texnologik komandalar qurilmasi (TKQ) orqali texnologik komandalarni bajaruvchi yelementlarga;

2) dasturni ishlash qurilmasi (DIQ) va yuritmasini boshqarish qurilmasi (YUBQ) orqali dastgohning ish organlarini surish yuritmalarini (SYU) ga yo‘naltiradi. Boshqaruv dasturning bajarilishi to‘g‘risidagi axborot teskari bog‘lanish datchiklari (TDB) va teskari bog‘lanish qurilmasi (TBQ) orqali dasturni ishlash qurilmasiga keladi.

Boshqaruvchi dastur RDB dastur amalga oshirilgach moddiy detal paydo bo‘ladi. Bu detal o‘zining chizmasidagi geometrik va texnologik axborotlarga mos keladi. Boshqa shakldagi detalga ishlov berish uchun RDB qurilmasiga mos boshqaruvchi dastruli dastur tashigichni o‘rnatish yetarli bo‘ladi.

Boshqaruvchi dasturni ishlab chiqish (tayyorlash) jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat.

16)zagotovka va uni olish (tayyorlash) texnologiyasini tanlash;

17)samarali ishlov berishni ta’minlaydigan RDB dastgohni tanlash va uning texnik tafsilotlarini belgilash;

18)detalning texnologik chizmasini ishlab chiqish, texnologik bazalarni aniqlash va zagotovkani mahkamlash usulini tanlash;

19)kesish asbobini va uning parametrlarini tanlash;

20)yuzaga ishlov berish tartib – navbatini (marshrut texnologiyani) va barcha texnologik parametrlarni tanlash va aniqlash;

- 21)koordinatalar o‘qini tanlash va kontur tayanch nuqtalarining koordinatalarini hisoblash;
 - 22)asbob markazining (masalan, freza o‘qining) siljish trayektoriyasini aniqlash;
 - 23)ekvidistanta tayanch nuqtalarining koordinatalarini hisoblash;
 - 24)approksimasiyalash qadamini aniqlash va ekvidistantaning geometrik elementlarini approksimasiyalash;
 - 25) oraliq nuqtalar koordinatalarini hisoblash va ularning jadvalini tuzish;
 - 26) Boshqaruvchi dasturni qo‘llaniladigan interpolyatorning kodi bilan yozish;
 - 27) Axborotni dastur tashigichga yozish;
 - 28) Interpolyatsiyalash;
 - 29) Dasturni ikkilamchi dastur tashigichga yozish;
 - 30) Uskunani olingan boshqaruvchi dastur (yoki bevosita interpolyator) dan boshqarish;
- Dastlabki beshta bosqich o‘z mazmuniga ko‘ra, universal dastgohda ishlov berishni texnologiyani tayyorlash bosqichlarga o‘xshaydi. Ular korxonaning texnik bo‘limida bajariladi. 6 – 15 bosqichlar RDB dastgolarga xizmat ko‘rsatuvchi maxsus bo‘limda ishlab chiqiladi. Oxirgi bosqich sexda sozlovchi yoki operatorning ish o‘rnida bajariladi. Boshqaruvchi dastur texnolog va dasturchi – texnik nazorati ostida sinab ko‘riladi.

Qayd etish lozimki, ko‘rsatilgan bo‘limlar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa bo‘ladi, yani xujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi takliflar mos bo‘limlarga o‘zatiladi.

Nazorat savollari:

5. RDB dastgohlar deyilganda nima tushiniladi?
6. Boshqaruvchi dastur nima?
7. Boshqaruvchi dastur kadri, so‘zi, raqami va kadr formati haqida so‘zlang?
8. RDB dastgohlarni tasnifi haqida gapiring?

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash kesuvchi asboblari va dastgohlar. Toshkent : - 2004 y.
5. Gjirov R.I. Programmirovaniye obrabotki na stankax CHPU. Moskva: - 19g.
6. Metallorejushiye stanki s CHPU. Moskva:- 1974 g

3-Mavzu	RDB TOKARLIK STANOKLARI.
----------------	---------------------------------

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi

<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 – 80 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Ma'ruza-muloqot</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Stanoklarning tiplari va konstruksiyalari · 2. 16K20FZ modeli tokarliq stanogi · 3. 16K20FZ modeli tokarliq stanogining texnik xarakteristikasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	RDB tokarlik stanoklari to'g'risida keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.
<i>Pedagogik vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Stanoklarning tiplari va konstruksiyalarinig mazmun – mohiyatini sharhlab berish. • 16K20FZ modeli tokarlik stanogi haqida tushuncha berish. • 16K20FZ modeli tokarliq stanogining texnik xarakteristikasi to'g'risida ma'lumotlar berish. 	<i>O'quv faoliyat natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Stanoklarning tiplari va konstruksiyalarinig mazmun – mohiyatini bilib oladilar. • 16K20FZ modeli tokarlik stanogi haqida ma'lumot oladilar. • 16K20FZ modeli tokarliq stanogining texnik xarakteristikasini bilib oladilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali, ma'lumotli, anjuman ma'ruza, "Insert" texnologiyasi.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	Kompyuter, proyektor, slaydlar
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi.

№		Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1	I bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (10 min)	1.1. Ma'ruza mavzusi e'lon qiladi va mavzu rejasi bilan tanishtiradi. (1-ilova)	Yozib boradilar
		1.2. Mavzuga oid foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini namoyish qiladi. (2-ilova)	Yozib olishadi
		1.3. Bilimlarni faollashtirish jarayonida faol ishtirok etishgan talabalarni baholash uchun baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova)	Yozib olishadi
2	II bosqich. Asosiy, informasion (55 min.)	2.1. Stanoklarning tiplari va konstruksiyalarinig mazmun –mohiyatini sharhlab beradi.(4-ilova).	Tinglaydilar, yozadilar.
		2.2. 16K20FZ modeli tokarlik stanogi haqida tushuncha beradi. (5-ilova).	Tinglaydilar, yozadilar.
		2.3. 16K20FZ modeli tokarliq stanogining texnik xarakteristikasi to'g'risida ma'lumotlar beradi. (6-ilova).	Tinglaydilar, yozadilar.
		2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida "Insert" texnikasidan foydalaniladi. (7-ilova).	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3	III bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.	Savollar beradilar.
		3.2. Mustaqil ta'lim uchun navbatdagi mashg'ulot mavzusini taqdim etadi va mazkur o'quv materialini o'rganib kelish vazifasini beradi.	Vazifani yozib oladilar.

Mavzuning qisqacha mazmuni:


Tokarlik – vintqirgish stanoklari avtomatlashtirish darajasi bo‘yicha mashinalarning birinchi guruhini tashkil etuvchi dastaki boshqariladigan universal dastgohlar qatoriga kiradi. Bunday dastgohlarni asosiy xususiyati shundaki, zagotovka va asbobning ish harakatlarini (asosiy harakati va surish harakatini) dastgoh bajaradi, yordamchi harakatlarni va boshqarish harakatlarni esa odamlar knopka (tugma) dasta, richag, chambarak va hakoza yordamida bajaradi. Universal dastgohlar muntazam takomillashtirib borilsa (mexanizasiyalash va kichik avtomatlashtirish vositalari bilan jihozlansa) ham ularning jarayonida odam doim bo‘lishi va qatnashishi lozim. Odam bunday ishni bajarganda bir yo‘la ko‘p stanoklarga xizmat ko‘rsata olmaydi. Ko‘p dastgohlarga xizmat ko‘rsatish mehnat unumdorligini oshirishining istiqbolli usularidan biridir. Bundan tashqari, odam detallarga ishlov berish jarayonida qatnashganda ish unumiga va ishlov berish aniqligiga subektiv ta’sir ko‘rsatadi.

Dastaki boshqariladigan universal dastgohlarning afzalligi ularning yuqori darajada universal va tez o‘tuvchanligidan iborat.

Universal deganda dastgohning turli detallariga ishlov berishga moslanish qobiliyati tushuniladi. Tez o‘tuvchanlik bir detalni chiqarishdan boshqa detalni chiqarishga qayta moslash (o‘tish) vaqti bilan aniqlanadi. Dastaki boshqariladigan universal stanoklar o‘ziga xos xususiyatlari tufayli donalab, mayda va o‘rtacha seriyali ishlab chiqarish sohalarida qo‘llaniladi. Bu sohalar uchun dastgohlarning kam unumli ishlashi hal etuvchi ahamiyatga ega bo‘lmaydi Lekin bu sohalarida dastgohlarning yuqori darajada universal va tez o‘tuvchi bo‘lishi ularga qo‘yiladigan eng muhim talablardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda dastgohlarning ish unumini va aniqlikni oshirish, mehnat sarfini kamaytirish talabalari quyilganligi munosabati bilan ayniqsa mayda va o‘rtacha seriyali ishlab chiqarishda avtomatlashtirish usullari va vositalarini izlash asosiy yo‘nalish bo‘lib qoldi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning ko‘p qismi mayda va o‘rtacha seriyali ishlab chiqarish sohasiga to‘g‘ri keladi. Bu sohadagi muammolar raqamli dastur bilan boshqariladigan (RDB) (dastgohlarni qo‘llanish yo‘li bilan hal etiladi) RDB dastgohlar maxsus avtomatlashtirilgan dastgohlar uchun xos bo‘lgan yuqori darajada aniqlik va unumdorlik dastlabki boshqariladigan universal dastgohlarga xos bo‘lgan moslanuvchanlik va tez o‘tuvchanlik xususiyatlariga ega.

Navoiy mashinasozlik zavodida 16K20 modeli dastgoh asosida yaratilgan NT-250I modeli tokarlik – vintqirqish dastgohning



1-pacm.

kinematik strukturasi 1-rasmda keltirilgan. Bu dastgohda interpolyator va raqamli indeksiya (dastur bilan boshqarishning siklli tizimi) bilan jihozlangan. Dastgoh tashqi va ichki silindrik, konussimon va shakldor yuzalarga ishlov berish, chervyaklar tayyorlash, bir va ko'pqirqimli rez'balar , shu jumladan, o'zgaruvchan qadamli rez'balar yasash uchun mo'ljallangan

DASTGOHNING TEXNIK TAFSILOTI

Ishlov beriladigan zagotovkaning eng katta diametri, mm:

- stanina ustida 500

- support ustida 210

Asboblar soni 4

Shpindelning aylanish chastotalari soni 255

Shpindelning eng katta aylanish chatotasi, ayl/min 2500

Surishni rostlash usuli – pog'onasiz, ravon

Surish chegaralari, mm/ ayl:

- bo'ylama surish 300

- ko'ndalang surish 300

Kesiladigan rez'baning eng katta qadami, mm 300

Tez siljish tezligi, mm/min

- supportniki 6000

- ko'ndalang salazaklarniki 5000

Siljishning diskertligi (qadami). Mm:

- bo'ylama siljishida 0,001

- ko'ndalang siljishida 0,001

Koordinatalar soni 2

Hisoblash tizimi – mutloq sonlarda va orttirmalarda

Surishlar yuritmalarini boshqarish tizimi turi – «Razmer 2M-51-

21/11»


Asosiy harakat elektr motorning quvvati, kVt 11

Modulli RDB tokarlik dastgohlar.

Bu dastgohni Moskva «Krasniy proletariy» dastgohsozlik zavodi va Germaniyaning «EMAS» dastgohsozlik firmasi birgalikda ishlab chiqqan. Dastgohlar modul prinsipida tuzilgan bo'lib, ular unifikasiyalangan (bixillashtirilgan) uzellar va detallardan yig'ilgan.

USCII modulli RDB bir shpindelli tokarlik avtomatning tuzilishi

2-rasmda ko'rsatilgan, Bixillashtirilgan shpindelli babka 2 va sarvoyuritma 7 yordamida siljiriladigan yuqorigi hamda quyi supportlar 5,6 ning bo'ylama yo'naltirgichlar 3,4 (koordinatasi) asos 1 ga mahkamlangan. Buylama yo'naltirgichlar asosida 45° qiyalantirib joylashatirilgan, shu tufayli qirindilar va moylash-sovitish suyuqligi (MSS) ish zonasidan oson ketadi. Shunda yo'naltirgichlar qirindi va MSS da teleskopik ixotalar 8 bilan muhofazalangan. Supportlarda



2-расм

unifikatsiyalangan o‘n ikki holatga qo‘yiladigan revolverli kallaklar 9 va 10 joylashgan. Bu kallaklar ko‘ndalang yo‘nalishida 250 mm gacha siljiy oladi (X koordinata) Quyi supportning bo‘ylama yo‘naltirgichlariga orqa babka II o‘rnatilgan. Dastgoh pult 12 dan boshqariladi.

Dastgohning asosi mineralit (mineral quyma) –epoksid smolali betonda tayyorlangan. Bu ashyoning titranishlarni so‘ndirish qobiliyatini chuyannikidan 6-8 marta yuqori bo‘lib, dastgohning titranishga chidamliligini jiddiy oshiradi. Mineralit yuqori haroratga chidamli, binobarin, issiqlikdan kam deformatsiyalanib, ishlov berish aniqligi yuqori bo‘ladi.

Bo‘ylama yo‘naltirgichlar ancha bikr, shpindel podshipniklarining diametri katta va asosiy harakat yuritmasi kuchli bo‘lganida dastgoh tezkor tokarlik ishlovini berishga imkon yaratadi.

Dastgoh zagotovkalarni berish va ishlov berilgan detallarni yechib olishda sanoat robtining ish zonasiga yaqinlashish qulay. Dastgoh asbobi avtomatik almashtirish uchun asboblar magazini bilan jihozlangan. Dastgohni o‘zi moslanuvchvan ishlab chiqarish tizimiga oson joylashadi.

USCII modeli stanokda CNC toifadagi RDB qurilmasi qo‘llaniladi.

Bu qurilma ko‘pchilik g‘arb mamlakatlarining dastgohsozlik firmalarida ishlatiladi. Qurilma mitti EHM, boshqarish pulti interpolyator, tezlik topshirish uzeli, surishlar yuritmasini boshqarish uzeli va CNC ning imkoniyatlarini kengaytiradigan boshqa bloklardan tuzilgan.

DASTGOHNING TEXNIK TAFSILOTI

Ishlov beriladigan zagotovkaning eng katta diametri, mm 250

Asboblarning soni 24

Aylanish chastotasini rostlash usuli pogʻonasiz

Shpindelning yeng katta aylanish chastotasi, ayl/ min 5000

Surishni rostlash usuli pogʻonasiz

Surish chegaralari, mm/min:

- buylama surish 1 – 1000

- koʻndalang surish 1- 1000

Kesiladigan rezbaning eng katta qadami, mm 50

Revolver kallaklarning boʻylama va koʻndalang yoʻnalishlarada tez

Siljish tezligi, mm / min 15000

Revolver kallaklarning yoʻli, mm:

boʻylama yoʻnalishda Z oʻqi boʻylab siljish yoʻli 1100

koʻndalang yoʻnalishda X oʻqi boʻylab siljish yoʻli 250

Siljish diskretligi (qadami), mm 0,001

Surishlar yuritmasining turi servoyuritma

Oʻlchash tizimi:

- boʻylama yoʻnalishda chiziqli datchik

- koʻndalang yoʻnalishida doira datchik

Koordinatalar soni 3

Bir yoʻla boshqariladigan koordinatalar soni 2

RDB qurilmasining turi CNC

Asosiy harakat elektrodvigatellining quvvati, kVt 15

Buyurtmasining talabiga koʻra II modeli RDB tokarlik avtomati boshqacha jihozlanishi ham mumkin:

- yuqori (yoki quyi) supportli va orqa babkali dastgoh;

- yuqorigi supportli, orqa babkali va quyi yoʻnaltirgichlarga lyunet

oʻrnatilgan dastgoh;

- qarama – qarshi yoʻnalishlar harakatlanadigan yuqorigi va quyi supportlar

va orqa babka bilan jihozlangan dastgoh;

Yuqori va quyi supportlar bilan jihozlangan (patronli ishlarni bajaridagan) dastgoh **Nazorat uchun savollar:**

RDB FREZALASH STANOKLARI

- 1 . RDB frezalash dastgohlarni vazifalari 25 minut.
2. 6N13F3 RDB konsolli vertikal frezalash dastgohlarni tuzilishi 30 minut.
3. 6 N13F3 RDB konsolli vertikal frezalash dastgohlarni ishlashi 25 minut.

Tayanch iboralar: RDB dastgohlar, frezalash dastgohlari, bajariladigan ishlar, 6N13F3 dastgoh, tuzilishi ishlashi.

Darsning maqsadi: Talabalarga RDB frezalash dastgohlarni vazifasi, tuzilishi va ishlashi haqida ma'lumotlar berish

Dars o'tish usullari: Talabalarning mavzuni to'liq o'zlashtirib olishlari uchun laboratoriya mashg'ulotlarda savol-javobga keng o'rin beriladi.

Dars o'tish vositalari: Ma'ruzani o'tish jarayonida ekranli vositalardan, plakatlardan, chizmalardan foydalaniladi.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Xozir mashinasozlikda ko'p turli murakkab shaklli detallar trubinalarning kuraklari, murakkab korpus detallar, masalan, uchish apparatlarining detallari, shtamplar, press shakllar, quymachilikda ishlatiladigan metall modellar va hakozolar bor. Bunday detallar ko'pchilik holatlarda yiliga bir donadan yuz donagacha ishlab chiqariladi, yani ular donalab va mayda seriyalab tayyorlanadi. Bunday detallarni universal frezalash dastgohlarida tayyorlash juda sermehnat bo'lib, ba'zan umuman, tayyorlab ham bo'lmaydi. Bundan tashqari, universal frezalash dastgohlari kam unumli va ishlov berish aniqligi to'g'ri.

6N13F3 - 2 modeli RDB konsolli vertikal frezalash dastgohining kinematik strukturasi 6 –rasmda ko'rsatilgan. [1,2]


Bu stanokda freza 1 shakl yasovchi oddiy harakat, F (V) asosiy harakatni bajaradi. SHakldor detallar konturiga ishlov berishda:

- freza va zagotovka 2 F ($p_2 p_3 p_4$) , F ($p_2 p_4$) yoki F ($p_3 p_4$);
- zagotovka F ($p_2 p_3$) shakli yasovchi murakkab harakatlarni bajaradi.


Bu murakkab harakatlarning p_2 , p_3 va p_4 tashkil e
 etuvchilari mos holda bo‘ylama (X koordinatasi), ko‘ndalang (koordinatasi) va vertikal (YA koordinatasi) surish harakatlari bo‘ladi.

dastgohlaridagi shakl yasovchi harakat A (V_1) universal konsol frezalash kabi oddiy kinematik guruh yordamida bajariladi. Bu guruhda tashqi aloqani sozlash organi i_u li kinematik zanjir $a-b$ taminlaydi. Sozlash organi frezaning aylanish chastotasini pog‘onali rostlaydigan tezliklar qutisidan iborat. SHakl yasovchi murakkab harakatlarni aralash, mexanik va elektron aloqali keyingilari 6-rasmda ko‘rsatilgan guruhlar bajaradi. Masalan shakl yasovchi harakat F ($p_2 p_3 p_4$) ni bajaradigan guruhda ichki aloqa kinematik zanjirlar $v-g$, $d-ye$ va $j-z$ momenti gidravlik kuchaytirgich GM lar bilan jimhozlangan qadamli elektrodvigatellari M_2 , M_3 va M_4 shuningdek, qadam dvigatellarini boshqarish qurilmalari, interpolyator va RDB qurilmasiga qarashli N33 – IM dastur kiritish qurilmasidan tuzilgan. Bu alohida sozlash organi dasturdagi kiritilgan axborotdan iborat bo‘ladi. Tashqi aloqa kinematik zanjirlar $v-g$, $d-ye$ va $j-z$ dan iborat . Bu zanjirlar bajaruvchi organlar (bo‘ylama va ko‘ndalang stollar, shpindelning pinoli) ni harakat manbalariga : momenti gidravlik kuchaytirgich GM lar bilan jihozlangan qadam dvigatellari M_2 , M_3 va M_4 ga birlashtiradi.

6N13F3 – 2 modeli RDB konsolli vertikal frezalash dastgohining kinematik sxemasi 7-rasmda tirgan.



7-rasm



8-rasm

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan RDB dastgohda frezalash jarayoni bir asbob bilan bajarilgani uchun u nisbatan oddiy detallarga ishlov berishga mo‘ljallangan. Bunday kamchilik 6R13F3 modeli RDB konsolli vertikal frezalash dastgohida bartaraf etilgan. Bu dastgohda ko‘p shpindelli revolver kallak 1 (8 –rasm) qo‘llanilgani tufayli murakkab

detallarga bir nechta asboblari: yon (troys) va bormoqsimon frezalar, parmalar, zenkerlar va

Razvetkalar bilan ishlov beriladi. Ish vaziyatda turgan shpindel 2 ga aylanma harakat rostlanadigan o'zgarimas tok elektr dvigateli M_1 dan ($n_{mt} = 575 \dots 22700$ ayl/ min) 4 pog'onali tezliklar qutisi ($Z_n = 2 \times 2$) orqali uzatiladi. Ikkita sozlash organi bu xilda birlashtirilganda shpindel ni 40 ...2000 ayl/ min chegerada 18 xil chastota bilan aylantirish mumkin bo'ladi. Aylanish chastotalari berilgan dastur bo'yicha avtomatik tarzda almashlab qo'shiladi.

DASTGOHNING TEXNIK TAFSILOTI

Stol ish yuzasining o'lchamlari (eni X uzunligi), mm 40x1600

Shpindelning aylanish chastotalari soni 18

Shpindelning eng katta aylanish chastotasi, ayl/min 20000

Shpindelning eng kichik aylanish chastotasi, ayl/min 40

Surish chegaralari, mm/ ayl:

- bo'ylama va ko'ndalang surish 8 -1200

- vertikal sursh 8-800

Surish, sozlash usuli pog'onasiz

Bo'ylama va ko'ndalang yo'nalishlarda siljish tezligi,

mm/ min 4000

Koordinatalar soni 6

Bir vaqtda boshqariladigan koordinatalar soni 3

Revolver kallakdagi asboblari soni 5

Koordinata o'qlari bilan siljish qadami, mm 0,01

Asosiy harakat yelektrodvigatelining quvvati, kVt 7,8

Nazorat uchun savollar:

1. RDB frezalash dastgohlarda bajariladigan ishlar haqida gapirib bering?
2. 6N13F3 RDB konsolli vertikal frezalash dastgohini tuzilishini tushuntiring?

3. 6N13F3 RDB konsolli vertikal frezalash dastgohini ishlashini

4. (kinematik tuzilishi) tushuntiring?

5.

6. 1.RDB – tokarlik dastgohlarni vazifasi va bajariladigan ishlari?

7. 2. 1K62F Z S 4 tokarlik dastgohni tuzilishi va ishlashi ?

8. 3. Modulli RDB tokarlik dastgohlari ?

9. 4. RDB tokarlik – dastgohlarini vazifasi?

10.

11. Foydalanilgan adabiyotlar:

12. 1.Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash kesuvchi asboblar va stanoklar .

Toshkent : - 2004 y.

13.2.Gjirov R.I. Programmirovaniye obrabotki na stankax CHPU. Moskva: - 1990 g.

14.3.Metallorejushiye stanki s CHPU. Moskva:- 1974 g

15.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iskandarov A.S. Materiallarni kesib ishlash kesuvchi asboblar va stanoklar . Toshkent :
- 2004 y.

2. Gjirov R.I. Programmirovaniye obrabotki na stankax CHPU. Moskva: - 1990 g.

3. Metallorejushiye stanki s CHPU. Moskva:- 1974 g

4-Mavzu	Boshqaruvchi dasturlar uchun axborot tayyorlash.
----------------	---

Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasi.

<i>Mashg'ulot vaqti- 2 soat</i>	<i>Talabalar soni: 20 – 80 gacha</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Ma'ruza-muloqot</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash. 2. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullari. 3. RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	RDB stanoglar uchun boshqaruvchi programmalar tayyorlash bo'yicha talabalarda keng qamrovli bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.
<i>Pedagogik vazifalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash haqida ma'lumot beradi. • Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullari to'g'risida tushuncha beradi. • RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash haqida ma'lumotlar beradi. 	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> <ul style="list-style-type: none"> • Talabalar boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash to'g'risida tushunchalar hosil qiladilar; • Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullarini o'rganadilaor. • RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash bilan tanishishadi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali, ma'lumotli, anjuman ma'ruza, "Delfi" texnikasi.
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy, juftlikda ishlash.
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, doska, kompyuter.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Hamkorlikda ishlash va taqdimotlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'lgan auditoriY.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

№		Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
1	I bosqich. O'quv mashg'ulotga kirish (10 min)	1.1. Ma'ruza mavzusi e'lon qiladi va mavzu rejasi bilan tanishtiradi. (1-ilova)	Yozib boradilar
		1.2. Mavzuga oid foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar ro'yxatini namoyish qiladi. (2-ilova)	Yozib olishadi
		1.3. Bilimlarni faollashtirish jarayonida faol ishtirok etishgan talabalarni baholash uchun baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (3-ilova)	Tinglaydilar, yozib oladilar
2	II bosqich. Asosiy, informatsion (55 min.)	2.1. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash haqida ma'lumot beradi.(4-ilova)	Tinglaydilar va yozib oladilar
		2.2. Boshqaruvchi prorammlar uchun axborot tayyorlash usullari xaqida ma'lumot beradi.(5-ilova)	
		2.3. RDB stanoglar uchun kesish rejimini tnlash haqida ma'lumotlar beradi.. (6-ilova)	Tinglaydilar va yozib oladilar
		2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida berilgan savollarni yoritishda "Delfi" texnikasidan foydalangan holda guruhlarga savollvr berilaadi. (7-ilova)	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3	III bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Mavzuni umumlashtiradi va umumiy xulosalar yasaydi. Talabalar diqqatini mavzuning asosiy tomonlariga qaratadi.	Tinglaydilar.
		3.2. Mustaqil ta'lim uchun nazorat savollariga javob tayyorlab kelish vazifasini beradi	Vazifani yozib oladilar.

Mavzuning qisqacha mazmuni:

Boshqaruvchi dasturlar uchun axborot tayyorlash.

Detallarga ishlov berganda asbob va detal mos shakl yasovchi harakatlarni bajarib, bir-biriga nisbatan ma'lum trayektoriya bo'yicha harakatlanadi. RDB dastgohlarda asbob markazi R ning harakat trayektoriyasi dasturlanadi. . O'qituvchi keskichlar uchun asbob markazi R – asbob cho'qqisidagi doira yoyining markazi: oxir frezalar, parmalar, razvetrkalar va zenkerlar uchun - asos markazi, sferik uchli oxir frezalar uchun - yarimsfera markazi va h.k. bo'ladi. Agar ishlov berish jarayonida asbob radiusi detalning konturi bo'ylab o'zgarmas , u holda asbob markazi R ning trayektoriyasi detalning konturiga nisbatan kvdistanta bo'ylab harakati ishchi harakat bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, asbob markazi tayyorlanish harakatlarini va yordamchi harakatlarini ham bajaradi. Bunday harakatlarning xarakteri boshlang'ich (nol) nuqtaning holatiga, moslamaning joylashishiga va h.k. ga bog'liq. Shunday qilib, boshqaruvchi dasturni tuzish uchun yeng avval asbob markazining ishchi, tayyorlanish va yordamchi harakatlarining trayektoriyalarini aniqlash zarur.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgandek, dastur tashigichlar tashqi va ichki bo'ladi. Tashqi dastur tashigichlarga: perfokartalar, perfolentalar, kinolentalar, magnit lentalar, sim, barabanlar va disklar kiradi. Ichki dastur tashigichlar shtekkerli panelar va kommutatorlar almashlab o'lchagichlar yoki knopka (tugmachalar) o'rnatilgan panellar, elektronurli trubkalar va h.k. dan iborat.

Perfokarta (1 rasm) burchagi qirqilgan qalinligi 18 mm li qalin qog'ozdan iborat. Qirqilgan burchak axborotning yozilishi boshini belgilaydi. Axborot to'g'ri burchakli (3X1,5 mm) yoki dumaloq (0 3mm) teshiklar shaklidagi kod bilan yoziladi. Teshiklar yasash perforatsiyalash deb ataladi.

Perfokartalar arzon va ularni oson tuzatish mumkin. Lekin ular RDB dastgohlar uchun yaramaydi, chunki barcha axborotni yozish uchun juda ko'p perfokartalar talab etiladi.

Perfolentalarda ko'rsatilgan kamchiliklar yo'q va ular RDB dastgohlarda keng ko'lamda ishlatiladi. Ular qalinligi 0,1 mm li yeni 17,5; 22,5 va 25,4 mm li qog'ozdan tayyorlanadi. Axborot perfolentalarga diametri 1,83 mm li (2-rasm) kod teshiklar vositasida yoziladi.

Teshiklar sirtlari orasi $2,54 + 0,05$ mm bo'ladi. Yetakchi (nakliyot) yo'lchadagi teshiklar diametri 1,17 mm ga teng.

Yeni 17,5 mm li perfolentadan beshta, eni 22,5 mm li da oltita yoki yettita, eni 25,4 mm li da esa sakkizta kod yo'lchalari joylashadi. Axborot perforatorlar (teshik yasagichlar) yordamida yoziladi.

Magnitli dastur tashigichlar perfokartalar va perfolentalardan farq qilib, tasma, sim, baraban va disk shaklida yasaladi, katta sig'imi va puxta bo'ladi. Bundan tashqari, ulardan axborotni ko'p marta va qayta yozishda foydalanish mumkin.

